ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 14.01.2026 · Принята: 18.03.2026 · Опубликована: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/dkk09t15

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Maqom usullaridan solfedjio darslarida foydalanishning ilmiy-pedagogik samaradorligi va natijalari

(Scientific and Pedagogical Effectiveness and Outcomes of Using Maqom Rhythmic Patterns in Solfeggio Instruction)

Barno Shamshiyeva

Department of History and Theory of Uzbek Maqom,
Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi,
Uzbekistan/Tashkent, Mustaqillik, 31, 100000
E-mail: barnoxon5995@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-5030-9169

Annotatsiya

Mazkur maqolada solfedjio darslarida maqom usullaridan foydalanishning ilmiy-nazariy va pedagogik ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yevropa tonal-garmonik tizimiga asoslangan an'anaviy solfedjio metodikasi bilan o'zbek mumtoz musiqasining modal-monodik tabiatiga xos xususiyatlar o'rtasidagi tafovutlar yoritiladi. Maqom usullarining ritmik idrok, ichki metrik sezgi, ladni anglash, eshitish xotirasi hamda ijrochilik malakasini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, maqom solfedjiosi jarayonida usul, iyqo', sekvensiya, tayanch va notayanch pardalar o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarning metodik imkoniyatlari batafsil tahlil qilinadi.

Maqolada maqom usullaridan foydalanish orqali ritmni tashqi sanash emas, balki ichki badiiy vaqt sifatida idrok etish, lad va ritmning uzviy birlikda o'zlashtirilishi asoslab beriladi. Bundan tashqari, maqom usullarining eshitish xotirasini rivojlantirish, sekvension tafakkurni shakllantirish hamda milliy musiqiy tafakkurni tarbiyalashdagi o'rni alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari solfedjio fanini milliy musiqa materiali asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maqom solfedjiosi, maqom usuli, ritm, iyqo', lad, modal tizim, monodiya, sekvensiya, tayanch parda, doira usuli, musiqa pedagogikasi.

Abstract

This article analyzes the scientific-theoretical and pedagogical significance of using maqom rhythmic patterns (usul) in solfeggio instruction based on a comprehensive approach. The study reveals the differences between the traditional solfeggio methodology grounded in the European tonal-harmonic system and the modal-monodic nature of Uzbek classical music. It substantiates the role of maqom usuls in the development of rhythmic perception, internal metric sense, modal awareness, auditory memory, and performance skills. Particular attention is given to the methodological potential of the complex interrelations between usul, iyqo',

sequence, and stable and unstable scale degrees within maqom-based solfeggio practice.

The article demonstrates that the use of maqom usuls enables the perception of rhythm not as external counting but as an internal artistic time, as well as the integrated assimilation of mode and rhythm. In addition, it examines the role of maqom usuls in developing auditory memory, forming sequential thinking, and cultivating national musical thinking. The findings indicate the necessity of improving solfeggio as a discipline through the incorporation of national musical material.

Keywords: maqom solfeggio, maqom usul, rhythm, iyqo’, mode, modal system, monody, sequence, stable tone, doira usul, music pedagogy.

Аннотация

В данной статье на основе комплексного подхода анализируется научно-теоретическое и педагогическое значение использования усулей макома в занятиях по сольфеджио. В исследовании раскрываются различия между традиционной методикой сольфеджио, основанной на европейской тонально-гармонической системе, и особенностями модально-монодической природы узбекской классической музыки. Научно обосновывается роль усулей макома в формировании ритмического восприятия, внутреннего метрического чувства, понимания ладовой структуры, слуховой памяти и исполнительских навыков. Также подробно анализируются методические возможности сложных взаимосвязей между усулем, ийко’, секвенцией, опорными и неопорными ступенями в процессе макомного сольфеджио.

В статье обосновывается, что использование усулей макома способствует восприятию ритма не как внешнего счёта, а как внутреннего художественного времени, а также формированию единого освоения лада и ритма. Кроме того, отдельно рассматривается роль усулей макома в развитии слуховой памяти, формировании секвенционного мышления и воспитании национального музыкального мышления. Результаты исследования показывают необходимость совершенствования дисциплины сольфеджио на основе национального музыкального материала.

Ключевые слова: макомное сольфеджио, макомный усул, ритм, ийко’, лад, модальная система, монодия, секвенция, опорный звук, доира усули, музыкальная педагогика.

Musiqa ta’limi tizimida solfedjio fani musiqiy tafakkurni shakllantirish, eshituv qobiliyatini rivojlantirish va ijrochilik ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Sharq mumtoz musiqa an’analariga asoslangan ta’lim

jarayonida solfedjio fanining mazmuni va metodikasini milliy musiqiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda maqom san’ati, xususan uning lad va ritm tizimlari solfedjio darslarining asosiy tayanch komponentlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan, solfedjio mashg‘ulotlarida maqom usullaridan foydalanish masalasi nafaqat metodik, balki nazariy va estetik jihatdan ham muhim ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Ritm - bu musiqiy tovushlarning vaqt ichida tartibli joylashuvi bo‘lib, u metr va temp bilan chambarchas bog‘liq. Musiqashunoslikda ritm tushunchasi keng ma’noda quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- vaqt birliklari (uzun-qisqa tovushlar);
- metr (urg‘ular tizimi);
- usul (ritmik formulalar);
- temp (tezlik).

B. Teplov o‘zining “Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi” asarida ritmik sezgini insonning tug‘ma va rivojlantiriladigan qobiliyati sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, ritmni his qilish musiqiy tafakkurning asosini tashkil etadi [1, b.4]. Solfedjio fanida ritm quyidagi yo‘nalishlarda muhim rol o‘ynaydi:

1. Musiqiy eshituvni rivojlantirishda ritm orqali talaba tovush davomiyligini farqlashni o‘rganadi. Bu esa interval va ladni anglashga yordam beradi;

2. Intonatsiya aniqligini ta’minlashda ritmik aniqlik bo‘lmasa, hatto to‘g‘ri tovush balandligi ham musiqiy mazmunni to‘liq ifodalay olmaydi;

3. Xotira va diqqatni rivojlantirishda ritmik mashqlar musiqiy xotirani mustahkamlaydi va diqqatni jamlashga yordam beradi;

4. Ijrochilik malakasini shakllantirishda ritm - bu ijroning “skeleti”. U holda musiqa shaklsiz va tartibsiz eshitiladi.

Musiqa ta’limi tizimida solfedjio fani musiqiy eshituvni rivojlantirish, intonatsion aniqlikni shakllantirish, ritmik sezgini mustahkamlash va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashda alohida o‘rin tutadi. Biroq har qanday

solfedjio tizimi muayyan musiqiy tafakkur modeliga tayangan holda shakllanadi. Yevropa an’anasidagi solfedjio asosan major-minor tonalligi, garmonik funksionallik va qat’iy metrik tuzilishga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek mumtoz musiqasi, ayniqsa maqom san’ati modal-monodik tabiat, tayanch pardalarning almashinuvi, usul va kuy harakatining ichki mutanosibligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli milliy musiqa ta’limi jarayonida solfedjio fanini o‘qitish metodikasini bevosita maqom tafakkuri bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy va pedagogik vazifa hisoblanadi. S. Matyakubova aynan shu muammoni ko‘rsatib, umumiy solfedjio tajribasi bilan an’anaviy Sharq ijrochiligiga ixtisoslashgan talabalar ehtiyoji o‘rtasidagi tafovut tobora kuchayib borayotganini ta’kidlaydi. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, dars jarayonini milliy qadriyatlar tomon burish uchun o‘zlashtiriladigan material mazmunan yangilanishi va amaldagi maqom nota matnlari o‘quv jarayoniga keng jalb etilishi zarur [2, b.10].

Maqom usullaridan foydalanishning ahamiyati, avvalo, maqom san’atining ritmik tabiatini to‘g‘ri anglash zarurati bilan belgilanadi. Maqom musiqasida ritm oddiy takt o‘lchovi yoki vaqt bo‘linishi emas. U musiqiy fikrning ichki harakatini tashkil qiluvchi va kuy rivojini boshqaruvchi qonuniyatdir. Usul esa shu ritmik tafakkurning tashkiliy modeli sifatida namoyon bo‘ladi. U zarblar, urg‘ular, davomiyliklar, kuchli va kuchsiz hissalar hamda davriy takrorlanishlarning murakkab tizimini o‘zida birlashtiradi. Solfedjio darslarida aynan maqom usullaridan foydalanish talabaning ritmga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi: u ritmni tashqi sanash emas, balki ichki kechinma, ichki harakat va badiiy vaqt sifatida idrok eta boshlaydi. Bu, ayniqsa, milliy ijrochilik tafakkurini shakllantirishda nihoyatda muhimdir.

Maqom solfedjiosi fanining asosiy maqsadlaridan biri maqomlarning lad, ritm va shakllanish tamoyillarini tushunib o‘zlashtirishdan iboratdir. Matyakubova bu jarayonda o‘zbek monodiyasining vazn va ritmik tuzilish xususiyatlarini tushunish, ularni erkin his etish hamda monodiyaning o‘zi bilan doira usuli o‘rtasidagi nozik

munosabatlarni tahlil qilishni muhim vazifa sifatida ko‘rsatadi. Demak, maqom usullaridan foydalanish solfedjio mashg‘ulotlarida nafaqat ritmik mashq sifatida, balki maqom tafakkurining tub mohiyatiga kirish vositasi sifatida qaralishi lozim.

Mazkur masalaning ilmiy asoslaridan yana biri modal va tonal tizimlar o‘rtasidagi farq bilan bog‘liq. Tonal tizimda markazlashuv ko‘proq vertikal garmonik birliklar orqali sezilsa, modal lad tizimida markaziylik kuy, tovushqator va ohanglarning yoyiq birligida namoyon bo‘ladi. Matyakubova bu jarayonni “lad yig‘ilgan kuy va kuy yoyilgan lad” tamoyili bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Solfedjio darslarida maqom usullaridan foydalanish aynan shu modal tafakkurni amaliy ravishda his qilish imkonini beradi, chunki usul yordamida kuy bo‘laklari ichidagi tayanch nuqtalar, urg‘ular va harakat yo‘nalishlari yanada ravshanlashadi. Ritm bu yerda ladni namoyon etuvchi omilga aylanadi. Tayanch pardalarning yuzaga kelishi va ularning kuchayishi ko‘pincha ritmik joylashuv, urg‘u berilishi hamda takrorlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Muallifning qayd etishicha, tayanch pardalarning asosiy va yordamchilik sifati ularning ritmik tuzilishiga, kuy va usul munosabatlariga hamda jumlaning boshi, o‘rtasi yoki oxirida kelishiga bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, maqom usullari solfedjio darslarida ladni ongli ravishda o‘zlashtirish vositasi sifatida ham muhimdir. Odatdagi yevropacha solfedjio darslarida tovush balandligi va ritm ko‘pincha ikki alohida komponent sifatida o‘qitiladi. Maqom solfedjiosida esa bu ikki omilning ajralmasligi namoyon bo‘ladi. Ritmik urg‘u qayerga tushsa, o‘sha joydagi pardaning tayanchlik xususiyati kuchayadi. Takrorlanayotgan tovushlar eshituvni ma’lum tayanchga sozlaydi. Jumla oxirida joylashgan barqaror parda asosiy tayanch sifatida mustahkamlanadi. Demak, usulni o‘rganish orqali talaba ritmni emas, balki ritm-lad butunligini o‘zlashtiradi. Bu esa maqom musiqasini intonatsion, strukturaviy va semantik jihatdan to‘g‘ri idrok qilishning muhim shartidir.

Solfedjio darslarida maqom usullaridan foydalanishning amaliy ahamiyati ham nihoyatda katta. Birinchidan, bunday mashg‘ulotlar talabalarda ichki metr hissini tarbiyalaydi. Maqom usullari doira zarblari, ichki impuls va davriy harakatlar bilan seziladi. Talaba sanashga tayangan holda emas, balki ritmik oqimni his etish orqali usulni o‘zlashtiradi. Bu esa keyinchalik maqom asarlarini to‘g‘ri talqin qilish, avj, namud, furovard va boshqa shakliy bo‘g‘inlarni his etishda yordam beradi. Ikkinchidan, maqom usullarini kuylash, qarsak bilan bajarish yoki doira jo‘rligida his qilish eshituv, xotira va koordinatsiyani kompleks rivojlantiradi. Uchinchi jihat shundaki, talaba murakkab ritmik formulalarni amaliyotda egallab boradi va bu uning professional ijrochilik salohiyatini oshiradi.

Maqom usullaridan foydalanish, ayniqsa, murakkab ritmik tafakkurni shakllantirishda juda samaralidir. Matyakubova yangi maqom nashrlari tufayli Chor usul, Murabba’, Musaddas, Musabba’, Nim Saqil, Se usul kabi qismlar va ularning usul asoslari aniqroq namoyon bo‘lganini qayd etadi. Bu holat maqom solfedjiosini oddiy 2/4, 3/4 yoki 4/4 kabi metrik sxemalar bilan cheklash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, dars jarayoniga ana shunday milliy usullarni kiritish orqali talabalar notekis, ko‘p bo‘g‘inli, murakkab ritmik tuzilmalarni o‘zlashtiradilar [2, b. 21]. Natijada ularda professional maqom ijrochiligiga xos bo‘lgan ritmik egiluvchanlik, nafas taqsimoti, zarbni his etish va usul ichida erkin harakatlanish qobiliyati shakllanadi.

Maqom usullarining yana bir muhim pedagogik vazifasi eshituv xotirasini rivojlantirish bilan bog‘liq. An’anaviy ijrochilik maktabida bilim, asosan, eshitish va takrorlash orqali uzatilgan. Bu jarayonda sekvensiyalash katta rol o‘ynaydi. Matyakubova sekvensiyani o‘zbek musiqasining tub jihatlaridan biri sifatida tavsiflaydi va hatto bir tovushning joyida takrorlanishini ham o‘ziga xos sekvensiya deb baholaydi. Sekvensiyalar lad qirralarini ko‘rsatadi, ritm va intonatsion formulalarni xotirada mustahkamlaydi, kuy mag‘zining eshituv orqali o‘rnashib qolishiga xizmat qiladi. Solfedjio darslarida maqom usullariga asoslangan

sekvension mashqlarni qo‘llash orqali talaba bir vaqtning o‘zida ritmik modelni, tayanch pardani va kuy yo‘nalishini eslab qoladi. Bu esa maqom tafakkuriga mos musiqiy xotira turini shakllantiradi [2, b.13].

Maqom usullaridan foydalanishning metodik samarasi ularni bosqichma-bosqich o‘qitish orqali yanada ortadi. Muallif tavsiya etganidek, avval kichik ritmik birliklar, so‘ng trixord, tetraxord va to‘liq lad tuzilmasi doirasida mashqlar bajariladi. Bu jarayonda usul jo‘rligida kuylash alohida ahamiyat kasb etadi. Ritmik mashqlarni lad asoslaridan vaqtincha ajratib o‘rganish, so‘ng ularni yana kuy bilan birlashtirish usuli juda samarali metodik yondashuvdir. Chunki talaba avvalo ritmning o‘zini his qiladi, keyin uni intonatsion harakat bilan uyg‘unlashtiradi. Muallif darslikda ritmik mashqlarda ikki narsaga alohida e’tibor qaratilganini aytadi: doira jo‘rligida ijro etiladigan usulning vazn-o‘lchov jihati va kuyning iyqo’, ya’ni ritmik harakati. Bu yondashuv maqom usullaridan solfedjio darslarida foydalanishning nazariy va amaliy uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Bu masalaning yana bir muhim tomoni milliy musiqiy tafakkurni shakllantirishdir. Solfedjio darslari faqat notani to‘g‘ri o‘qish yoki intervalni aniqlashdan iborat bo‘lib qolsa, u holda talaba milliy musiqa tabiatining ichki mohiyatiga kirib bora olmaydi. Aksincha, maqom usullaridan foydalangan holda o‘qitilgan solfedjio talabaning badiiy idrokini milliy mezonlar asosida tarbiyalaydi. U usulni his qilish orqali maqomning ichki harakati, davriyligi, taranglik va bo‘shashish nuqtalarini tushunadi. Natijada maqom asarining shakliy bo‘linmalari, jumlalar mantig‘i va ritmga bog‘liq ifodaviy kuchi aniqroq namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘quvchini nafaqat nazariy jihatdan savodli, balki estetik didi shakllangan ijodiy shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, maqom usullaridan foydalanish ijrochilik bilan nazariya o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi. Maqom amaliyotida ko‘plab qismlar tarixan eshitish yo‘li bilan, usul sezgisi orqali o‘zlashtirilgan. Solfedjio esa ana shu tabiiy amaliyotni ongli bilim bilan boyitadi. Matyakubovaning asosiy g‘oyalaridan biri

shuki, maqomlarni nota matnlaridan o‘qib o‘rganish nazariy asoslarni ongli idrok etish imkonini beradi, eshitish tajribasi va nazariy bilimlar muvofiqlashadi. Demak, maqom usullari bilan olib borilgan solfedjio mashg‘uloti an’anaviy ustoz-shogird amaliyoti bilan akademik ta’limni o‘zaro bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda ham bu yondashuv muhimdir. Chunki kompetensiyaviy ta’lim modelida talaba tayyor ma’lumotni yodlab oluvchi emas, balki musiqiy hodisani tahlil qiluvchi, his qiluvchi va amalda qo‘llovchi subyekt sifatida qaraladi. Maqom usullaridan foydalanish aynan shunday faol ta’limni tashkil etadi. Talaba ritmni eshitadi, takrorlaydi, doirada his qiladi, kuylaydi, tahlil qiladi, sekvensiya qiladi va ijodiy qayta ishlaydi. Bu esa unda mustaqil musiqiy tafakkur, ijodiy tasavvur va nazariy xulosalash qobiliyatini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, solfedjio darslarida maqom usullaridan foydalanish o‘zbek milliy musiqa ta’limining eng muhim metodik yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv ritmik sezgini rivojlantiradi, ichki metr hissini shakllantiradi, ladning tayanch va notayanch munosabatlarini ongli idrok etishga yordam beradi, eshituv xotirasini mustahkamlaydi, sekvension tafakkurni rivojlantiradi va eng muhimi, talabaning milliy musiqiy tafakkurini tarbiyalaydi. Maqom usuli solfedjio darsida shunchaki ritmik fon emas, balki lad, kuy, shakl va badiiy mazmunni birlashtiruvchi markaziy vositadir. Shu bois, solfedjio fanini milliy musiqa materiali asosida takomillashtirishda maqom usullariga tayangan metodik tizimni yanada chuqurlashtirish, amaliy mashqlar bazasini kengaytirish va bu boradagi ilmiy-pedagogik izlanishlarni davom ettirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Теплов, Б. М. *Психология музыкальных способностей*. — Москва, 1947.
2. Matyakubova, S. K. *Maqom solfedjiosi*. — Tashkent, 2013.
3. Matyoqubov, O. *Maqomot*. — Tashkent, 2004.
4. Rajabiy, Y. *Shashmaqom*: I–VI qism. — Tashkent, 1975.

5. Shamshiyeva, B. Rhythmic basis of cognitive growth and learning processes // *Central Asian Journal of Arts and Design*. — URL: https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD
6. Botirova, N. Segah Maqam and its Equivalents in Bukhara and Kashmir // *European Journal of Arts*. — 2025. — № 2. — URL: https://doi.org/10.29013/EJA-25-2-38-43

References

1. Teplov, B. M. *Psikhologiya muzykal'nykh sposobnostey* [Psychology of Musical Abilities]. Moscow, 1947. (in Russian)
2. Matyakubova, S. K. *Maqom solfedjiosi* [Maqom Solfeggio]. Tashkent, 2013. (in Uzbek)
3. Matyoqubov, O. *Maqomot* [Maqomot]. Tashkent, 2004. (in Uzbek)
4. Rajabiy, Y. *Shashmaqom* [Shashmaqom], vols. I–VI. Tashkent, 1975. (in Uzbek)
5. Shamshiyeva, B. "Rhythmic Basis of Cognitive Growth and Learning Processes." *Central Asian Journal of Arts and Design*. https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD.
6. Botirova, N. "Segah Maqam and Its Equivalents in Bukhara and Kashmir." *European Journal of Arts*, no. 2 (2025). https://doi.org/10.29013/EJA-25-2-38-43.